

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1366,7 mlrd.so'mni**, o'sish **9,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **4,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **51,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **56,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1366,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 4,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 33,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1257,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,0 % ni tashkil etdi.

***Yanvar-aprel oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,2	5,7	125,6
Paxta linti, ming tonna	1,8	1,6	110,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	404,2	417,7	96,9
Vino, ming litr	490,6	406,0	120,8
Un, ming tonna	37,9	38,2	99,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 707,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 4,3 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 51,8 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 50,4 % dan 2018 yilning yanvar-aprel oyida 50,7 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ortgani kuzatilmoqda.


Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,7 % ulushini), Namangan (8,7 %), Uychi tumani (8,2 %), Uchqo'rg'on (8,4 %), To'raqo'rg'on (6,9 %), Pop (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,6 %), Kosonsoy (2,1 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), Chust (3,3 %) va Norin (3,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Pop (2017 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 130,9 % ga), Chust (109,0 % ga), va Mingbuloq (147,1 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 56,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (99,1 %), Kosonsoy (94,9 %) va Namangan (76,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (13,4 %), Pop (25,0 %) va Uchqo`rg`on (22,0 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 4 mingdan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2013 tasi Namangan shahrida, 298 tasi Chust, 271 tasi Namangan, 266 tasi Uychi, 223 tasi To'raqo'rg'on, 212 tasi Kosonsoy, 150 tasi Chortoq, 134 tasi Pop, 135 tasi Yangiqo'rg'on, 147 tasi Uchqo'rg'on, 119 tasi Norin va 77 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2018 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 356 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 65,4 % Namangan shahri, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlarlariga to'g'ri keladi.

**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80